



Matematika darslarida ayrim interfaol metodlarning qo'llanilishi

Ismoilova Dildora Erkinovna

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola matematika darsini o'tishda interfaol metodlarning o'rni va ahamiyati aks etgan bo'lib, ayrim interfaol usullarning darsda qo'llanilishi, ularning kamchiliklar hamda afzalliklari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: matematika, o'qituvchi, talaba, interfaol metod, "penalty metodi", "shaxmat donalari" metodi.

Abstract: This article reflects the role and importance of interactive methods in the mathematics lesson, the use of some interactive methods in the lesson, their disadvantages and advantages are described.

Key words: mathematics, teacher, student, interactive method, "penalty method", "chess pieces" method.

Hozirgi davrda interfaol usullardan foydalanib dars o'tish o'qituvchining mahurat va san'atini ko'rsatishdan tashqari, talabalarning darsga qiziqishini orttirishga juda katta ta'sir qiladi. Matematika fani murakkabligi bilan bir qatorda barcha fanlarning asosi hisoblanadi ya'ni matematika fanini yaxshi o'zlashtira olgan talaba boshqa fanlarni o'zlashtirishga qiynalmasligi yorqin hayotiy misollardan biridir. Shuning uchun ham bu fanda turli interfaol metodlardan foydalanish muhim.

Ushbu maqolada matematika darsini qiziqarli hamda samarali o'tishga xizmat qiladigan ayrim interfaol usullarni bayon qilamiz.

1. "Penalty metodi".



Penalty ingliz tilidan tarjima qilinganda " jarima " ma'nosini beradi. Demak bu metod jarimalar bilan yanada qiziqarli va bahslarga boy o'tadi. Ushbu metodni qo'llash uchun bizga koptok kerak bo'ladi.

Dastlab guruh talabalarni ikki guruhga ajratib olamiz. Bilamizki futbolda 11 nafardan a'zo bo'ladi. Demak har bir guruhni 11 a'zodan tashkil topgan bo'lishi kerak hamda ularni quyidagicha shakllantiramiz:

- 1) Darvozabon 1 tadan (ikkala guruhning bittadan eng kuchli a'zosini darvozabon etib tayinlaymiz. Chunki bu metodda darvozabon asosiy kishi);
- 2) Himoyachilar (har bir jamoadan 4 nafardan talaba) ;
- 3) Yarim himoyachilar (har bir jamoadan 4 nafardan talaba) ;
- 4) Hujumchilar (har bir jamoadan 2 nafardan talaba).

Tarkiblar aniqlab olingach o'yin boshlanadi.

Dastlab qura tashlash yo'li bilan qaysi jamoa birinchi savollarga javob berishini aniqlab olamiz. Aniqlashtirgach, birinchi javob beradigan jamoa darvozaboni doskaga chiqadi. Raqib jamoa oldindan qog'oz parchaga yozilgan savolni skoch yordamida to'pga yopishtirib darvozabonga otadi. Darvozabon savolni o'qib ko'rib javob bera olsa maksimal - 8 BALLni qo'lga kiritadi

Agar darvozabon javobni bilmasa to'p himoyachilarga o'tadi va himoyachilardan birortasi savolga javob bera olsa 6 BALL ni qo'lga kiritadi. Darvozabon javob bermaganligi uchun 2 BALL jarima sifatida olinadi shu sababli himoyachilar javob berganda 6 BALL beriladi.

Agar himoyachilar ham savolga javob bera olmasa to'p yarim himoyachilarga o'tadi va ular savolga javob bera olsa 4 BALLni qo'lga kiritadi. Bunda ham 2 ball himoyachilar javob bera olmaganligi sababli jarima sifatida ayrilgani uchun 4 BALL beriladi.

Agarda yarim himoyachilar ham savolga javob bera olmasa to'p endi hujumchilarga o'tadi va ular savolga javob bera olsa 2 BALLni qo'lga kiritadi (-2 jarima yarim himoyachilar savolga javob bera olmaganligi uchun).



Agar hujumchilar ham javob bera olmasa jamoa ballsiz qoladi va navbat endi raqib jamoaga keladi.

O'yin shu tariqa navbatma navbat javob berish orqali davom etadi. Har bir jamoa 5 tadan savolga javob beradi.

Ushbu metodda o'qituvchi hakam sifatida qatnashib talabalarning savolning javobini jamoadoshlariga aytib qo'ymasligini qattiq nazorat qilishi kerak bo'ladi. Ayniqsa, talabalar orasidan saralangan himoyachilar darvozabonga, yarim himoyachilar himoyachilarga, hujumchilar yarim himoyachilarga ballni ko'p olaylik degan maqsadda javobni aytib qo'ymasligi nazorat qilinishi zarur, Aks holda guruhda shovqin va tartibsizlik bo'lib o'yin kutilgan natijani bermasligi mumkin.

"Penalty metodi" yanada qiziqarli bo'lishi uchun talabalar savollarni oldindan mukammal tarzda tuzib kelsalar yanada yaxshiroq. Bu metod amaliyot va seminar darslarida ayniqsa juda ham samarali bo'ladi. O'yin oxirida taqdirlash marosimi o'tkazib guruh talabalarini rag'batlantish ham mumkin. Masalan,

" O'yinning eng yaxshi darvozaboni "

" O'yinning eng yaxshi himoyachisi "

" O'yinning eng yaxshi yarim himoyachisi "

" O'yinning eng yaxshi hujumchisi "

kabi nominatsiyalar bilan faol qatnashgan talabalarni taqdirlab, o'qituvchining imzosi tushirilgan sertifikatlarni taqdim etish talabalar chun yanada qiziq bo'ladi va albatta g'olib jamoa uchun KUBOK ham tayyorlash mumkin va bu ushbu qiziqarli darsni talabalar esida qolishi, yaxshi o'zlashtirishiga sabab bo'ladi.

2. "Shashka donalari" metodi.

Shashka o'yini qiziqarli sport va san'at turlaridan biri. O'quvchilarni mantiqiy fikrlashga chorlovchi aqliy gimnastika turlaridan biridir.

Bizga yaxshi ma'lumki, o'yinning maqsadi raqibning barcha shashkalarini olish yoki ularni harakat qilish (qulflash) imkoniyatidan mahrum qilishdir.



“Shashka donalari” metodini dars jarayonida qo’llash uchun, guruh talabalarini oldingi dars oxirida guruhlariga bo’lib ularga shashka donalari va ularning ichida raqib jamoa uchun savollar tuzish vazifa qilib beriladi.

Dastlab guruh talabalarni 6 ta kichik guruhga bo’lib olamiz. Iloji boricha har bir guruhda 5 nafardan ko’p bo’lmagan talabalar bo’lishi kerak. O’qituvchi tomonidan 6 ta jamoa uchun 3 ta shashka doskasi tayyorlab kelinadi hamda jamoalarga berilgan vazifa bo’yicha shashka donalari jamoalardan olinib, shashka doskasiga teriladi. Bunda 3 ta jamoa oq qolgan uchta jamoa qora rangdagi shashka donalari tayyorlab kelishi kerakligi talabalarga oldindan vazifa berilishi shart.

Masalan: oq shashka donalarini tayyorlab kelgan jamoa qora shashka donalari ostida o’yin olib boradi. Qora donalarini tayyorlab kelgan jamoalar esa oq shashka donalari ostida o’yinni olib boradi. Shashka donalari ortida yozilgan savollarga javob bergan jamoa o’yinni davom ettiradi. Agar shashka ortidagi savollarga javob berolmasa, o’sha ortiga savol yozilgan shashka donasi shashka doskasidan chetlashtiriladi. Shashka ortidagi savollarga javob bergan jamoaga 1 ball beriladi. Raqib jamoaning shashka donalarini qo’lga kiritgan jamoalar hisobiga esa 2 ball yoziladi. 6 ta jamoa uchun 3 nafar talaba hakamlik vazifasini bajaradi. O’yin davomida jamoalar tomonidan xato - kamchiliklarga yo’l qo’yilmaganliklarini, o’yin tartibi buzilmaganliklarini nazorat qilib, jamoalar to’plagan ballarni yozib boradilar. Hakamlik vazifasi talabalardan sergaklikni, diqqatli, adolatli bo’lishni talab qiladi. Har bir jamoa o’zlariga nom berish bilan birgalikda jamoa sardorlarini ham tanlashadilar.

Har bir jamoaning yutug’i o’qituvchi tomonidan rag’bat kartochkalari bilan baholanib boriladi. Jamoalardan birinchi bo’lib g’oliblikni qo’lga kiritgan jamoaga esdalik sovg’a sifatida shashka jamlanmasi sovg’a qilinadi.

“Shashka donalari” metodini amaliyot yoki mustahkamlash darslarida qo’llash dars jarayoni yanada rang- barang tarzda qiziqarli o’tishiga turtki bo’ladi. Shuningdek mavzularni takrorlash orqali talabalarning bilimlari yanada mustahkamlanib boriladi.



Bundan tashqari matematika darsini qiziqarli va samarali olib borishi uchun “O’rgimchak to’ri”, “O’chirg’ich” kabi ko’plab metodlardan foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Erkinovna, D. (2021). Kantor toplamining olchovi mavzusini oqitishda ayrim interfaol usullar. Центр научных публикаций (buxdu. Uz), 8(8).
2. Boboeva M.N., Rasulov T.H. The method of using problematic equation in teaching theory of matrix to students. Academy. 55:4 (2020), pp. 68-71.
3. Rasulov T.H., Rashidov A.Sh. The usage of foreign experience in effective organization of teaching activities in Mathematics. International journal of scientific & technology research. 9:4 (2020), P. 3068-3071.
4. Erkinovna, D. (2022). Bir noma’lumli tengsizliklar va uni oqitish metodikasi. Центр научных публикаций (buxdu. Uz), 24(24).
5. Mardanova F.Ya., Rasulov T.H. Advantages and disadvantages of the method of working in small groups in teaching higher mathematics. Academy. 55:4 (2020), pp. 65-68
6. Erkinovna, I. D. (2023). Funksiya limiti mavzusini o’qitishda interfaol usullardan foydalanish. Лучшие интеллектуальные исследования, 9(1), 173-175.
7. Ismoilova, D. E. (2021). To’rt o’lchamli qo’zg’alishga ega ikki kanalli molekulyar-rezonans modelining sonli tasviri. Scientific progress, 2(3), 289-295.